

GANIYEV Avazbek,

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islom tarixi va manbashunosligi
IRCICA kafedrasida dotsenti, DSc*

NISHONOVA Zarnigor,

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
Islomshunoslik yo'nalishi 2-kurs magistranti*

SAUDIYA ARABISTONI VA TURKIYADAGI TURKISTON MUHOJIRLARI TARIXI (1917-1990-YILLAR)

THE HISTORY OF TURKESTAN EMIGRANTS IN SAUDI ARABIA AND TURKEY (1917-1990)

ИСТОРИЯ ТУРКИСТАНСКИХ ЭМИГРАНТОВ В САУДОВСКОЙ АРАВИИ И ТУРЦИИ (1917-1990)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston milliy-ozodlik harakatining shakllanishi, rivojlanishi va uning ijtimoiy-siyosiy oqibatlari tahlil qilinadi. Turkiston xalqlarining mustamlakachilikka qarshi kurashi tarixiy jarayon sifatida ko'rib chiqilib, uning asosiy bosqichlari, yetakchi shaxslari va ularning maqsadlari yoritiladi. Shuningdek, harakatning g'oyaviy asoslari, uning mintaqadagi ta'siri va milliy o'zlikni shakllantirishdagi roli o'rganiladi. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari, tarixiy manbalar va zamonaviy tadqiqotlardan foydalanilgan. Olingan natijalar Turkiston milliy-ozodlik harakatining nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Turkiston, milliy-ozodlik harakati, mustamlakachilik, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, mustaqillik, milliy o'zlik, tarixiy harakat, siyosiy erkinlik, madaniy yangilanish, Markaziy Osiyo.

Annotation: The national-liberation movement in Turkestan against Soviet colonial rule represents a significant chapter in the history of Central Asia. This movement was driven by the desire of the indigenous peoples of the region to resist political oppression, economic exploitation, and cultural suppression imposed by the Soviet regime. The struggle for independence

was marked by multiple uprisings, the formation of autonomous governments such as the Kokand Autonomy, and the resistance efforts of movements like the Basmachi rebellion. Despite facing immense military and political opposition, these movements laid the groundwork for future nationalist aspirations and played a crucial role in shaping the modern identity of the Central Asian nations. This study explores the historical context, key figures, and long-term implications of the Turkestani resistance, shedding light on its legacy in the post-Soviet era.

Keywords: Turkestan, national liberation movement, colonialism, socio-political processes, independence, national identity, historical movement, political freedom, cultural renewal, Central Asia.

Аннотация: В данной статье рассматривается национально-освободительное движение в Туркестане, его предпосылки, ход и последствия. Анализируются социально-политические процессы, вызванные колониальной политикой, а также влияние этих событий на национальную идентичность и стремление к независимости. Особое внимание уделяется историческим движениям, направленным на политическую свободу и культурное возрождение региона.

Ключевые слова: Туркестан, национально-освободительное движение, колониализм, социально-политические процессы, независимость, национальная идентичность, историческое движение, политическая свобода, культурное возрождение, Центральная Азия.

KIRISH

O'tgan asrning 20-yillarida kommunizm zulmidan qochib, o'zga yurtlardan panoiz izlagan Turkiston muhojirlari uchun Saudiya Arabistoni eng xavfsiz qo'rg'on bo'la olgan. Bundan tashqari bu yerda ikki Sharif shahar borki, Islom dini vujudga kelgan vaqtdan beri Musulmonlarni o'ziga chorlab turadi. Makka va Madina, musulmonlar uchun muqaddas shaharlar, Islom dinining muhim arkonlaridan biri bo'lgan haj ziyorati uchun har yili millionlab musulmonlarni o'ziga jalb qiladi.

Saudiya Arabistoni hududida joylashgan bu shaharlar har yili taxminan 3 million musulmonni qabul qiladi va mamlakat iqtisodiga 8-10 milliard AQSH dollari miqdorida daromad keltiradi. Tarixiy

ma'lumotlarga ko'ra, chorizm mustamlakasi davrida ham Turkiston o'lkasi musulmonlari haj ziyoratiga borib turgan. 1880-1900-yillarda har yili 3-5 ming turkistonlik haj ziyoratiga borar edi. Ba'zi ziyoratchilar tijorat yoki boshqa sabablarga ko'ra Arabistonda doimiy yashab qolishgan.

Sovet davrida, ayniqsa 20-30-yillarda, minglab o'zbeklar va boshqa turkistonliklar Sovet Ittifoqidagi siyosiy qatag'onlardan qochib, Arabistonga ko'chib o'tishga majbur bo'lganlar. Arxiv hujjatlariga ko'ra, 1960-yillarda Saudiya Arabistoni va Misrda 37 ming turkistonlik yashagan. Ular orasida o'zbek, tojik, turkman, qirg'iz va qozoqlar bor edi. Ushbu diasporaning shakllanishi Sovet Ittifoqidagi qiyinchiliklar va Arabistondagi qulay sharoitlar bilan bog'liq. Saudiya Arabistonidagi o'zbeklar soni haqida turli ma'lumotlar mavjud. Ba'zi manbalarda 400 ming, boshqalarida esa 350 mingdan 700 minggaacha o'zbek va boshqa turkistonliklar yashashi aytiladi. Ularning aksariyati tijorat bilan shug'ullanadi va Madina, Makka, Toif, Ar-Riyod kabi markaziy shaharlarda yashaydi. Saudiya Arabistonida buyuk ajdodimiz Imom Buxoriyning nomi ulug'lanadi. Turkistondan muhojir bo'lib borgan vatandoshlarimizning aksariyati o'z ismlariga Turkistoni, Buxoriy nisbalarini qo'shib aytadilar.

ASOSIY QISM

Ma'lumki Turkiston muhojirlari asosan ikki yo'l orqali vatanni tark etishgan. Ushbu yo'llarning biri Amudaryo orqali Afg'onistonga olib chiquvchi yo'l bolsa, ikkinchisi esa Ergashtom orqali Qoshg'arga olib boruvchi yo'l edi. Amudaryo orqali Afg'onistonga o'tish jarayonlari masalasi yuqorida qisman bo'lsa-da ko'rib o'tildi. Ergashtom dovoni orqali asosan Farg'ona vodiysi xalqi muhojirlikka chiqib ketgan. Muhojirlikka oid xotiralar bilan tanishish jarayonida shunga amin bo'ldimki, Ergashtom yo'li ancha xavfli bo'lgan. Mo'minjon Ismoiljon o'g'li Andijoniyning xotirlashicha Andijondan O'shga, undan Chig'irchiq dovonini oshib, G'ulja orqali So'fiqo'rg'onga o'tib, bir oy yo'l bosib Ergashtomga yetib kelganlar. Ushbu safar davomida siyosiy va tabiiy ob-havo sharoitlari bilan bog'liq xavf-xatarli kunlarni boshlaridan

o'tkazganliklarini alohida ta'kidlab, sovuq havo, oziq-ovqat tanqisligi va har kuni ayg'oqchilar xavfi mavjud bo'lgan bu davrda qo'lga tushganlar beayov otib tashlanganligini ham xotiralarida qayt etib o'tgan. Yo'llardagi qiyinchiliklar, xususan, So'fiqo'rg'ondan Ergashtomgacha bo'lgan tog' yo'llari azobi va GPU ayg'oqchilaridan yashirinib o'tkazilgan kunlar va tunlar Mulla Qurbonalining Saudiya Arabistonida yashayotgan va hozirda qarib qolgan nabiralari Muminjon va Olimjon hamda Abdullojon o'g'li Komiljonlar tomonidan hanuzgacha hayajon bilan eslanadi. Ular bu xotiralarni hayotlarining eng mudhish va tashvishli kunlaridan biri sifatida umrbod unutmaganlar. Ergashtom dovonidan o'tayotgan muhojirlar yo'lda yuklarini eshaklarga ortib, o'zlari piyoda yurishgan. Odamlar 8-10 kishilik guruhlariga bo'linib, tunlarda yo'lga chiqishgan va Qoshg'ar yo'lidan adashmaslik uchun mahalliy qirg'izlardan "yo'l boshchi-qorovul" yollashgan [2, 896 b.].

Ot va eshaklarning yurishidan shovqin chiqmasligi uchun ularning tuyoqlarini kigiz parchalari bilan o'rab bog'lashgan. Saharga yetganda guruh-guruh bo'lib to'xtab, qalin daraxtzor yoki yo'ldan chetdagi tog' etagida kun bo'yi yashirinib o'tirishgan, tun yarim bo'lganda esa yana yo'lga chiqishgan. Ular uchun Ko'ksuv postidan o'tib olish tahlikali jarayon edi, chunki Ko'ksuv katta daryo bo'lib, ko'prikdan o'tish xavfli va barcha yo'lovchilar u yerda sinchkovlik bilan tekshiruvdan o'tkazilgan [3, 30 b.]. Yo'ldagi mashaqqatlarni yengib hayotlarini davom ettirish uchun kelgan muhojirlarga oson bo'lmagan albatta. Ularni borgan joylarida avvalo tirikchilikni qanday o'tkazish masalasi kutib turardi va bu masalada ko'plab muhojirlar qiyinchiliklarga duch kelganlar. Xususan, Saudiya Arabistoniga muhojir bo'lib ketgan Turkistonliklar ham bu borada qator qiyinchiliklarni boshlaridan kechirganlar. Bu haqida Sayyid Mubashshir Kosoniy o'z xotiralarida qayt etib o'tgan. U 1953-yilda Onasi bilan haj safariga boradi. O'sha vaqtlarda Makkada elektr energiyasi va suv ta'minoti yetishmovchiligi, shuningdek, tirikchilikning og'irligi haqida aytib o'tgan. Muallif arab tilini bilishi tufayli kichik bir do'konda ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan. Do'kon egasi

bilan kelishuvga ko'ra, foydaning yarmi muallifga tegishli bo'lishi kerak edi. Muallif Makka shahrida yashash uchun ruxsatnoma olishga harakat qiladi, ammo unga mamlakatdan chiqib ketish buyrug'i beriladi. Bu vaziyatda Makkada tashkil etilgan Namangan takyasidan vatandoshi Zokirjon hoji unga yordam berishga harakat qiladi va muallifning mamlakatda qolishi uchun kafil bo'ladi. Zokirjon hoji Shokir Ziyo ismli shaxs bilan uchrashib, muallifga ruxsatnoma olish uchun yordam so'raydi. Shokir Ziyo, agar biror Saudiya fuqarosi kafolat bersa, muallifga ruxsatnoma berilishi mumkinligini aytadi. Muallif do'kon egasi Mahdum aka bilan bo'lgan kelishuviga ishonib, ishini davom ettiradi. Ammo, Mahdum aka muallifga yordam berishdan bosh tortadi va do'konda ishlashni faqat savob uchun berganini aytadi. Bu vaziyatda muallif do'kon ishidan butunlay vos kechib, Zokirjon hoji bilan chiqib ketadi. Muallifning xotiralari bilan tanishish jarayonida Muhojirlarning orasida qiyinchilikda qolgan vatandoshlarining ahvoriga befarq qaramaydigan insonlar ham ko'pchilikni tashkil etganligiga guvoh bo'lamiz. Bu haqida Muallif mamnuniyat bilan yozgan.

O'sha davrda Saudiya Arabistonida yashayotgan Turkistonliklarning aksariyati tijorat ishlari bilan shug'ullanar edi. Muallif ana shunday do'kondorlardan biri Muhammadamin ismli shaxsdan vaziyatni aytib yordam so'ragan. O'z navbatida ushbu inson Muallifni. Muzxonada bosh muhandis bo'lib ishlovchi Umar Afandi ismli inson bilan tanishtiradi va Muallifga yashash ruxsatnomasini olish va ishga joylashishi uchun yordam berishini iltimos qilgan. Umar Afandining yordami bilan Muallif yashash ruxsatnomasiga ega bo'lgan va yuk mashinasi haydovchisi bo'lib ishga joylashgan [4, 70 b.].

Tarix fanlari doktori, professor Rustambek Shamsutdinovning 1993-yilda nashr etilgan "Boburni izlab" nomli kitobida Saudiya Arabistonida safarda bo'lgan vaqtida vatanni tark etishga majbur bo'lib, muhojirlik yillarining aksar qismini Afg'onistonda o'tkazib, keyinchalik Saudiya Arabistoniga kelib joylashgan Abdumalik ota bilan suhbatda bo'lgan va kitobda mazkur suhbatdan parchalar keltirgan. Abdumalik ota

30-yillarning dahshatlari haqida shunday hikoya qigan: "Ha, biz yosh edik, Stalin badbaxt odamlarni qirib yuborgan. Oq g'orni tepasida Latta Zovud degan joy bor edi. O'sha yerga odamlarni olib borib, o'zlariga chuqur kovlatib, odamlarni osardi, otardi. Kim boy bo'lsa, kim olim bo'lsa, eshon bo'lsa, namoz o'qisa, undaylarni o'sha joyga olib borib otaverishgan. Xotinlar hammasi paranjida edi.

Leninning haykali bor edi, o'sha joyga xotinlarni olib borishib, paranjilarini kuydirishib, hammasining yuzini ochib yuborishardi. Avval kolxoz yo'q edi, hamma erkin savdo-sotiq qilardi. Sho'rolar bularni taqiqladi. Afg'oniston musulmon hukumati edi. Shu bois ne azoblar bilan Andijonni tark etib, hijratni farz aylashga to'g'ri keldi. Avval Tojikistonga keldik. Xonobod, Bog'lon degan joylarda bo'ldik. Afg'onistonda tijorat qildik, do'kon qildik, xotin oldik, hayot yaxshi bo'ldi. Ammo bu yerga ham "Sho'rolar" yetib keldi, "Savr inqilobi" deb nomlangan mudhish voqealar boshlanib ketdi. Darbadar bo'ldim. Kommunistlarga qarshi urushdim. Afg'onistondan Madinaga kelganimga salkam 2 yil bo'ldi" [6, 43 b.].

Shu kabi jonli xotiralar bugungi avlodga ajdodlarimiz qanchalar og'ir sinovlarni boshlaridan kechirganliklarini chuqurroq anglagan holda, bugungi tinch ozod vatanimizni qadriga yetib, uni kelajak avlodlarga ham ozod va tinch holda yetkazish zarur ekanligini ta'kidlaydi. Muhojirlikda yashayotgan o'zbeklar eng avvalo o'z ona tillari o'zbek tilini saqlab qolish, o'zbek milliy urf-odat, an'analariga sodiq qolishga harakat qilganlar.

1930-yillar boshida Saudiya Arabistoniga ketgan Mo'minjon Andijoniy o'z maktublarining birida: "Olti farzandim bor. Ularga tarbiya berish va o'qitishda asosiy maqsad qilib o'zbek tilini o'rganishni qo'ydim. Farzandlarim o'zbek tilini juda sof gapiradilar, gapirganda xuddi O'zbekistondan kelgan kishilarni eslatadilar. Hijozga (Saudiya Arabistoni) ko'chib kelganimizda ko'p vatandoshlar o'z farzandlariga o'zbek tilini yetarli o'rgatmaganliklarini sezib, biz ularni tanqid qildik. Hozir bolalarimizning orasida o'zbek tilini bilmaydigani yo'q" [2, 26 b.], deb yozgan edi.

O‘z farzandlariga o‘zbek tilini o‘rgatish yo‘lida u yoki bu mamlakatlardagi o‘zbek vatandoshlar maxsus jamoalarga birlashib, mablag‘ to‘plab, xususiy va o‘zbek jamoa maktablarini qurganlar, oralaridan savodxon ziyolilarni iqtisodiy jihatdan ta‘minlab, mudarrislik, muallimlik qilishga sharoit yaratganlar.

Sovet davri Turkiston muhojirlari tarixini o‘rganish davomida ushbu mavzuning muhim bir jihati bilan qiziqdim. Bu jihat xorij davlatlarining Turkiston muhojirlariga qanday munosabatda bo‘lganligidir. Xususan Saudiya Arabistonida mazkur masalaga qanday qaralgan? 1994-yilda Saudiya Arabistonida ilmiy safarda bo‘lgan Boburshunos olim Sayfiddin Jalilov Makka, Madina, Jidda, poytaxt Riyoz, shuningdek, Toif va Robigda yashovchi vatandoshlarimiz bilan suhbatda bo‘lgan va keyinchalik 2006-yilda Saudiya Arabistonida yashayotgan vatandoshlarimiz haqida “Buxoriylar qissasi” nomli monografik tadqiqotini e‘lon qilgan. Unda keltirilgan ma‘lumotlarga ko‘ra Saudiya Arabistoni davlati dastlabki yillardan boshlab buxoriylarga o‘z hayotlarini tartibga solib olishlari va musofirlikdan aziyat chekmasliklari uchun yaxshi sharoitlar yaratib bergan va yordam ko‘rsatgan. Bu haqda ba‘zi vatandoshlarimizning quyidagi so‘zlaridan bilsa bo‘ladi: “Hukumat bironta buxoriyning burnini qonatmagan” (Safohon Jalolxon Marg‘iloniy). “Kimki halol mehnat qilib, biron kasb bilan shug‘ullansa, unga ko‘mak berdi” (Abdulhamid Ahmadali Maxdum); “Hukumat hech kimdan soliq olmadi” (Ahmadali To‘lqin); “Davlat uy-joy qurib olishimiz uchun bizga yerlar ajratib berdi” (Qori Abduhakim); “Uy-joy qurishga davlatdan qarz olsa-yu, kimki uni muddatida to‘lab tursa, oxirida qarzining ma‘lum foizini kechib yubordi” (Habibullo Nazirjon) va hokazo.

Shuningdek, ayrim shaharlar mahalliy hokimiyat vakillarining so‘zlariga qaraganda butun Arabistonning keyingi 70 yillik tarixida buxoriylardan bironta o‘g‘ri, kazzob, tovlamachi, qotil, fohishaboz, nashavand yoki xufya ichuvchi (“piyanista”) chiqmagan, shuningdek, bironta vatandoshimiz xizmat jarayonida davlatga xiyonat qilib, ishdan ham haydalmagan, qamalmagan. Bu hayotiy haqiqat ham Arabiston hukumatining

buxoriylarga bo‘lgan munosabatida muhim omil bo‘lib, ular hayotiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatib kelgan [3, 69 b.].

Saudiya Arabistonida yashagan Turkiston muhojirlari haqida so‘z borar ekan, Turkistonning yetuk olimi Mahmud ibn sayid Nazir at-Taroziy ya‘ni Oltimxon To‘ra haqida, garchan uning hayot yo‘li va qoldirgan ilmiy merosi alohida tadqiqotmi talab qilsa-da, mazkur tadqiqotimda qisqacha ma‘lumot berib o‘tishni lozim deb topdim. Oltinxon To‘ra, to‘liq ismi Mahmud ibn Sayyid Nazir at-Taroziy bo‘lib, taxminan 1894-yilda Avliyo ota (hozirgi Tarozi shahri)da tug‘ilgan va 1991-yil 26-iyunda Makkada vafot etgan. U taniqli ulamo, adib va tarjimon bo‘lgan. U dastlabki ta‘limni otasidan olgan, keyinchalik shayx ibn Kamol Nosirxon To‘ra Kosoniy va davrining boshqa yetuk olimlaridan ta‘lim olgan. Xo‘jand, Toshkent va Buxoro madrasalarida tahsil olgan. Arab, fors va turk tillarining barcha lahjalarini mukammal egallab, mudarris bo‘lib yetishgan. Sho‘ro tuzumining ziyolilarga va ilm ahllariga nisbatan o‘tkazgan nohaq zug‘umi sababli, Oltinxon To‘ra mamlakatdan chiqib ketishga majbur bo‘lgan. 1932-yildan boshlab Kobul shahrida yashay boshlagan va bir muddat Afg‘oniston maorif vazirligida maslahatchi lavozimida faoliyat yuritgan. Keyinchalik Hindistonning Bombay shahridagi masjidda imom xatib bo‘lib xizmat qilgan.

Ikkinchi jahon urushi boshlangandan keyin Saudiya Arabistoniga ko‘chib borib, umrining oxirigacha Makka va Madina shaharlarida yashab ijod etgan. Oltinxon To‘ra Makkadagi Harami sharif va Madinadagi Masjid an-nabaviyda mudarrislik qilib, Qur‘on va hadislardan saboq bergan. Oltinxon To‘ra hazratlari o‘z vatani Turkistonda ilm olish imkoniyatlari cheklanganligi sababli chet elga chiqib, ilmini boyitgan va turkiy xalqlarga tarqatishga harakat qilgan. U Afg‘oniston, Hindiston va Saudiya Arabistonida yashab, ilmiy faoliyatini davom ettirgan. Muhojirlik hayoti unga ilmiy bilimlarini yanada boyitish va turkiy millat vakillariga taqdim etish imkonini bergan. Oltinxon To‘ra islomiy va odob-axloqqa oid manbalarni arabcha savodi bo‘lmagan turkiy xalqlarga

yetkazishga harakat qilgan. U mashhur asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilib, ularni vatanga yuborish yo'llarini izlagan.

Uning ba'zi asarlari O'zbekistonga yetib kelgan va o'z navbatida dinsizlik hukmi ostida yashayotgan Turkistonliklar, ma'naviyatini to'ldirishga hissa qo'shgan. U asarlarni muhim izohlar va zarur sharhlar bilan to'ldirgan. Oltinxon To'raning muhim asarlaridan biri "Riyoziy us-solihin" kitobi bo'lib, bu asar sharhlar bilan tarjima qilingan. Shuningdek, uning Qur'oni karimning izohlar bilan qilgan tarjimasi o'zbek tiliga qilingan birinchi tarjima hisoblanadi. Bu tarjima Hindiston, Pokiston va Saudiya Arabistonida nashr qilingan.

"Nur ul-basar" asari ham muhim tadqiqotlardan biri bo'lib, Payg'ambarimiz hayotiga bag'ishlangan. Oltinxon To'ra jami 20 ga yaqin asar yozgan. Uning asarlari orasida "Qur'oni karimning tarjimasi va tafsiri", "Riyoziy us-solihin"ning sharhlari va tarjimasi, "Aqid ul-islom", "Hizb ul-a'zam" duolar to'plami, "al-Fiqh ul-Akbar"ning sharhli tarjimasi, "Aqidai Tahoviy" asariga sharh, "Devoni qasoidi Mahmudiya", "Shamoili Muhammadiya" kabi asarlari mashhurdir. Shuningdek, Oltinxon To'raning boshqa muhim asarlari qatoriga "Kitob al-haj", "Yosin" surasining tarjimasi va sharhi, "Musaddasoti Mahmudiya", va "Nuru ul-basar" kiradi. "Nuru ul-basar" kitobi Payg'ambarimizning hayotiga bag'ishlangan bo'lib, u eski turkiy yozuvda yozilgan. Bu kitobda Payg'ambarimizning tug'ilishidan to'vafot etgunlariga qadar bo'lgan hayoti qisqacha yoritilgan. Oltinxon To'ra nafaqat diniy olim, balki mohir shoir va adib sifatida ham tanilgan. Uning she'riy to'plamlari ona vatani haqida so'z yuritadi. U vatandan olisda yashaganligi sababli, she'rlarida vatanga bo'lgan sevgi va sog'inchi tuyg'ulari aks etgan. Shoir Turkistonning taqdiri haqida qayg'urib, uning ozodligini Allohdan so'ragan. Oltinxon To'raning she'rlari uning vatan ishq va ozodlik istagida yashaganini ko'rsatadi. Oltinxon To'ra hazratlarining ilmiy me'rosi – Mir Arab madrasasi [8, 1 b.].

Yaqin o'tmishda yashab o'tgan va aksariyati bugungi kunda hayotdan ko'z yumgan ana shunday millatdoshlarimizning bosib o'tgan hayot yo'llari bilan tanishib, to'g'ri xulosa chiqargan holda vatan qadrini chuqurroq anglashimiz zarurdir.

Turkistonlik muhojirlar uchun tili, dini, va madaniyati jihatidan yaqin va birmuncha qulayroq bo'lgan yana bir davlat bu Turkiya bo'lib, aksar aholisi musulmon va madaniy yaqinligi tufayli, o'zbek muhojirlari uchun birmuncha ishonchli manzil bo'la olgan. Turkiyada yashovchi o'zbek diasporasi soni taxminan 70 mingni tashkil etadi. Ular mamlakatning deyarli barcha viloyatlari va yirik shaharlarida istiqomat qiladilar. Turkiyada "o'zbek" deb nomlangan to'qqizta qishloq mavjud bo'lib, ular Chanoqqal'a, Chankiri, Diyarbakir, Erzurum, Izmir, Qahramanmarash, Sakarya va Shirnak viloyatlarida joylashgan. O'zbeklar Turkiyaga turli davrlarda kelib joylashganlar. Ularni shartli ravishda quyidagicha tasniflash mumkin:

1. O'rta asrlarda Movarounnahr hududidan kelgan o'zbeklar, ya'ni ularning ajdodlari;
2. Birinchi Jahon urushi davrida Usmonli imperiyasi qulaganidan keyin Saudiya Arabistoni hududidan kelgan o'zbeklar;
3. Ikkinchi Jahon urushi paytida nemislar tomonidan asirga olingan va Turkiston legionida xizmat qilgan o'zbeklar. Urushdan so'ng, ba'zilar Turkiyada yashaganlar;
4. 1952-yilda Afg'onistondan ko'chib o'tgan o'zbeklar;
5. Sovet qo'shinlari bosqinidan so'ng Afg'onistonni tark etishga majbur bo'lgan va qo'shni mamlakatlarda vaqtincha boshpana topgan o'zbeklar. 1982 yilda ushbu odamlarning bir necha ming nafari Turkiya Respublikasiga ko'chirish dasturi asosida keltirilgan;
6. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin turli sabablar bilan Turkiyaga kelgan o'zbeklar. Ushbu tarixiy jarayonlar Turkiyada o'zbek diasporasining shakllanishiga olib kelgan [10, 1 b.].

Shuningdek, Turkiya hukumati ham o'zbek muhojirlarini qabul qilib boshpana bergan. Bu haqida umrining ko'pgina qismi muhojirlikda kechgan Sayyid Mubashshir Kosoniy o'zining xotiralarida shunday yozadi. "Yana o'z xotiralarimni davom etay. Shunday ko'rgiliklarga qaramay bizlar har qanday avvalgi muhojir ahliga nisbatan "baxtli" ekanmiz. Chunki, shu paytda

yuqorida aytganim cho‘lu biyobonlarga haydaliş to‘xtatilgan. Bilishimcha bunga bir sabab bor ekan. Turkiya Jumhuriyati Raisi Mustafo Kamol Otaturk Anqara shahrida afg‘on elchisi Fayz Muhammadxonni huzuriga chorlab, afg‘onlarning Turkiston muhojirlariga g‘ayriinsoniy munosabatda bo‘layotganidan g‘azablanib, norozilik bayonoti bergan, o‘tkazilayotgan zolimlik siyosatini qoralab: “Agar mamlakatingizda Turkiston musulmon muhojirlari uchun joy bo‘lmasa, bizga topshiring!” degan. Bu gapni men Sayyid Muhiddinxon to‘raning xizmatlarida bo‘lgan chog‘imda eshitgan edim. Shu masala haqiqat bo‘lsa kerak, deb o‘ylayman. Chunki afg‘on hukmdorlari yangi kelgan Turkiston muhojirlarini Dahana-i G‘urriy degan mintaqaga (Xonoboddan 110 kilometr uzoqlikdagi joy) surgun qilishga qaror qilgan ekan” Gaziantep universiteti ijtimoiy fanlar jurnali 2023-yil maxsus sonida Erjiyes universiteti Adabiyot fakulteti tarix bo‘limi o‘qituvchisi, Erhan Yoska “Turk dunyosidan Turkiyaga ko‘chishlar: 1931-1982-yillar davriga sharh” nomli maqolasida bu haqida quyidagicha ma‘lumotlar keltirgan: “Imperiyaning tugashidan to Turkiya Respublikasi tashkil etilgan dastlabki yillarigacha bo‘lgan davrda uzoq davom etgan urushlar tufayli aholi soni qisqardi. Bu jarayon Turkiyaga iqtisodiy, ijtimoiy va harbiy mudofaa nuqtai nazaridan salbiy ta‘sir ko‘rsatdi. Turkiya Respublikasining ilk yillarida yangi davlat va yangi tuzumning milliy o‘zligini mustahkamlash, malakali kadrlarga ega bo‘lish va turk xalqini yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlardan qutqarish uchun turk millatiga mansub, madaniy jihatdan bir xil aholiga muhtoj edi.

Keyinchalik Mustafo Kamol Posho bu ehtiyojni qondirdi. “Darhaqiqat, mamlakat aholisining soni afsuslanarli darajada, chegaralarimizdan tashqarida yashayotgan bir xil millat va madaniyatga mansub odamlarni olib kelib, ularni tinch holatda turmush kechirishiga yordam berish orqali aholi sonini ko‘paytirish kerak. Rossiyadan olib kelish imkoni bo‘lsa, u yerdan ham olib kelamiz”. Mustafo Kamol Posho tomonidan bu so‘zlar bilan ilgari surilgan aholi siyosatiga muvofiq, turk ziyolilari va turkiy madaniyatli muhojirlarni ko‘chirish va joylashtirish maqsad qilingan. Shu maqsadda

Turkiya Respublikasining turar-joy siyosatining bosh asosini tashkil etuvchi 2510-sonli qaror qonuni kuchga kirdi. Ushbu qonun milliy tuzilmani himoya qilishga, aholining sifat va sonini yaxshilashga qaratilgan. Shu maqsadda ushbu qonun muhojirlarni Turkiyaga qabul qilish shartlarini belgilab berdi”. Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar Sayyid Mubashshir Kosoniyning so‘zlari haqiqat ekanliginida kidlab turibdi. Darhaqiqat o‘sha davrda O‘zbek, Qozoq, Qirg‘iz, Turkman, Tojik millatiga mansub Turkistonning ko‘plab musulmon aholisi shuningdek Sharqiy Turkistonlik Uyg‘urlardan ko‘pchiligi Turkiyaga kelib joylashdilar. Shu o‘rinda bir savol, tug‘iladi.

Muhojirlarning Turkiyaga kelishi va joylashish jarayonlari qanday kechgan edi? Masalaning bu jihatini kengroq yoritish uchun ushbu mavzu doirasida yurtimizda va Turkiyada olib borilgan tadqiqotlarga murojaat qilamiz. Albatta, bu jarayon qiyinchilik bilan amalga oshirilgan. Ikkinchi jahon urushi oldidan bolsheviklar boshqaruvining sovetlashtirish siyosati qarshisida turk xalqi va jamoalari fursat bo‘lganda Turkiyadan boshpana so‘rashga harakat qildilar.

Shu nuqtai nazardan, arxiv hujjatlarida aks ettirilgan ommaviy ko‘chish harakatlaridan biri 1931-yilda Qizilchakchak hududida sodir bo‘lgan Turkiyadan boshpana olmoqchi bo‘lgan turk ziyoli muhojirlari guruhini qo‘lga olishga urinayotgan Qizil Armiya askarlari Turkiya chegarasini 3 marta kesib o‘tib, turk askarlari bilan to‘qnashdilar. Yana, 05.11.1931-yilda Rossiya tarkibidagi Kamarli, va boshqa bir nechta qishloqlardan Aras daryosidan o‘tishga uringan 124 nafar muhojirlarga qarata o‘t ochilgan va kurashdan keyin atigi 38 kishi Turkiyadan boshpana so‘rashga muvaffaq bo‘lgan bolsheviklar tomonidan turk ziyolilariga nisbatan tazyiq kuchaygani sari Turkiyaga boshpana so‘raganlar soni ham ortdi.

1933-yili Kars gubernatorligi turk millatiga mansub 1745 qochqinning sovetlardan qochib Turkiyadan boshpana topgani haqida xabar berdi. Sovet ma‘muriyati Turkiya tomon migratsiya harakatlarini to‘xtatmoqchi bo‘lib, 1933-yilda Turkiya bilan chegara buzilishlarini hal qilish uchun qo‘shma komissiya tuzishga qaror qildi. Chegarada

qizil armiya askarlari nazorati kuchaytirildi. Qayd etilgan chora-tadbirlarga qaramay, Sovet Ittifoqidan Turkiyaga migratsiyaning oldini olish mumkin emas edi.

Ikkinchi Jahon urushidan oldin migratsiya yo'li bilan boshpana izlab Turkiyaga kelgan, ammo arxiv hujjatlarida aniq millati ko'rsatilmagan 12477 nafar qochoqning arizalari 1938-yil 18-martdan 1939-yil 14-martgacha bo'lgan davrda Vazirlar Kengashi tomonidan muhokama qilindi va qabul qilindi. Muhokama qilingan qochqinlardan tashqari, 1938-yil 1-aprelda 51 nafar Sovet ittifoqi turklarining va 1938-yil 18-mayda 38 nafar shaxsning arizalari 1312-sonli Qonunning 5-moddasiga ko'ra Vazirlar Kengashi tomonidan qabul qilindi. Mavjud qiyinchiliklarga qaramay, Turkistonlik muhojirlar Turkiyaning turli xududlariga joylashdilar va u yerlarda hayotlarini davom ettirishga harakat qildilar. Bu borada Turkistonning yetakchi shaxslari masofadan turib harakat qilganlar. Ana shunday shaxslardan biri Shermuhammadbek qo'rboshi hisoblanadi. Vatanimiz tarixida 1917-yildan keyin istiqlolchilik harakatlari Turkiston o'lkasi bo'ylab keng tarqaldi. Ammo bu harakatlar hech qanday natija bermadi. sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan ajdodlarimizning ko'plari shahid bo'ldi, ayrimlari esa hayotlarining qolgan qismini o'zga yurtlarda muhojirlikda o'tkazishga majbur bo'ldilar.

Turkistonda Sovet hokimiyatiga qarshi kurashgan taniqli namoyandalardan biri marg'ilonlik Shermuhammadbek qo'rboshi (1893-1970) sanaladi. U 1918-1922-yillarda Farg'ona vodiysidagi milliy ozodlik harakatining yetakchi rahbarlaridan biri edi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek Turkiston ozodligi uchun olib borilgan barcha harakatlar besamar ketdi. Bu yo'lda ayovsiz kurash olib borgan Shermuhammadbek qo'rboshi ham hech qanday natijaga erisha olmagach ilojsizlik natijasida 1927-yilda ukasi Nurmuhammadbek qo'rboshi bilan birga Afg'onistonga ketishga majbur bo'lgan.

Shermuhammadbek qo'rboshining Farg'onadagi istiqlolchilik harakatlari, shuningdek uning muhojirlik hayoti haqida ma'lumot beruvchi Qahramon Rajabovning "Shermuhammadbek

qo'rboshi" nomli risolasidan ko'plab ma'lumotlar olishimiz mumkin. Quyida ushbu risoladan Shermuhammadbek qo'rboshining boshidan kechirgan muhojirlik hayotidan qisqacha ma'lumot keltirib o'tamiz:

"Aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbekning Afg'onistonda muhojirlikda o'tgan hayotlari ancha mashaqqatli bo'lgan. Kobulning rasmiy hukumati Sovet Rossiyasi tazyiqi bilan ularga noxush munosabatda bo'lgan. Shermuhammadbek keyinchalik ma'lum muddat Hindistonda, 1951-1955-yillarda Pokistonning Peshovar shahrida yashadi. Tarixchi olim R.Shamsutdinovning yozishicha, 1951-yili Afg'onistonda yashagan turkistonlik muhojirlar Turkiyadan siyosiy boshpana olishdi. Aka-uka Shermuhammadbek va Nurmuhammadbeklar bu ishga bosh-qosh bo'ldilar. Shermuhammadbek vaqtincha Peshovarda, Nurmuhammadbek esa Karochida yashab, 1111 kishini Turkiyaga jo'natishdi. Nihoyat, 1955-yili Shermuhammadbek o'z oilasi bilan Turkiyaga keldi va to umrining oxirigacha Turkiyaning Adana shahrida hayot kechirdi. 1970-yil 10-martda Shermuhammadbek, 1984-yil 10-yanvarda Nurmuhammadbek Adana shahrida vafot etishdi. Shermuhammadbekning o'limi turkistonlik muhojirlar uchun katta yo'qotish bo'ldi. O'sha kunlari Adanada motam e'lon qilindi. Uning dafn marosimiga minglab kishilar yig'ildi" [1, 25 b.].

O'tgan asrning 20-yillarida Turkiston taraqqiyparvarlarining sayi-harakatlari bilan bir guruh yoshlar Germaniyaga o'qishga yuborilgan. Ammo Sovet hokimiyatining shavqatsiz siyosati ushbu yoshlarni ham chetlab o'tmagan va natijada mazkur talabalarning aksar qismi o'qishni tamomlab o'z vatanlariga qayta olmaganlar va ularning ma'lum bir qismi ikkinchi jahon urushi oldidan Turkiyaga kelib joylashganlar. Toxir Chig'atoy, Ibrohim Yorqin, Ahmadjon Ibrohimov, Abduvahob Ishoq va Saida Sherahmedovalar shular jumlasidandir. Ularning har biri Germaniyada egallagan bilim va tajribalarini o'z vatanlarida amalga tadbiq etish nasib qilmagan bo'lsa-da Turkiya jamiyatida o'z o'rinlarini topishda muhim omil bo'lib xizmat qildi. Xususan, Ahmadjon

Ibrohimov madanshunoslik sohasida, Ibrohim Yorqin zootexnik, Abduvohob Ishoq tibbiyot sohasida, Saida Sherahmedova pedagogika sohasida va Toxir Chig'atoy Anqara universitetida sotsiologiya sohasida faoliyat yuritganlar.

Ularning hayot yo'llari va o'z sohalarida erishgan samarali natijalari haqida taniqli adabiyotshunos olim Sh. Turdiyevning "Ular Germaniyada o'qigan edilar" nomli kitobida batavsil ma'lumot berilgan. Sh. Turdiev o'z tadqiqoti so'ngida 20-yillarda Germaniyaga o'qishga borgan talabalar ushbu kitobda tilga olingan kishilardangina iborat emasligi, o'z vatanlaridagi siyosiy ta'qibdan qochib, xorijda qolib ketgan sobiq talabalar orasida Saidali Usmoniy, Ahmad Shukriy, Ahmad Naim, Afzal Abdusamad, Abdulmajid Ibrohim, Sobir Turkistonli, Temurbek Kazbekov, Olimjon Qodirov, Muhammad Xo'jayev, B. Eminjonov kabilar ham bo'lsalar-da, ular haqidagi arxiv ma'lumotlari, ko'p emasligini afsus bilan ta'kidlagan. Shuningdek muallifning qayt etishicha, o'tgan asrning boshlarida o'rtaosiyolik talabalar Germaniyadan tashqari, Turkiya, Fransiya, Angliya, hatto Yaponiyaga ham o'qishga borganlar.

"Farg'ona" gazetasining 1923-yil 26-aprel sonida Rafiq nomli muallifning yozishicha, o'sha davrda Yevropada o'qigan talabalar soni 500 dan kam bo'lmagan. Ushbu ma'lumotlar bugungi kun tarixchilarini g'oyat muxim va dolzarb izlanishlar olib borishda davom etishga undaydi [9, 155 b.]. Yoshlik jurnalining 1989-yil 9-sonida shoir To'ra Mirzoning Turkiyaga qilgan safar ta'surotlari haqida bergan intervyusida Turkiyada yashayotgan Turkistonliklar xususida to'xtalib o'tgan. Turkiyada yashayotgan Turkistonliklar o'zbeklar, qozoqlar, qirg'izlar, turkmanlar ba'zi sovet yozuvchilari tasvirlaganlaridek, gadoychilik, tilanchilik qilishmayotganini, ular faqat ona-yurt diydorining tilanchilari, ekanligini ta'kidlab shunday degan edi: "Buni she'r o'qiganimda Chig'atoy lahjasida siz u mendan toza gaplashadigan, soqollari ko'ksilarini qoplagan chollar yig'lashganida o'z ko'zim bilan ko'rib, ishondim.

Vatandoshlarimiz bilan suhbatlashar ekanman, ularning tantiligi, zukkolidan g'ururlandim. "Turkiston" jamiyatining boqoni Ahad Andijonning

siyosiy bilimiga tan berdim. Jahonning o'nlab tillarida gapira oladigan bu yigitning Orol fojiasi va Afg'onistonda halok bo'lgan o'zbeklar haqidagi maqolalarini o'qib, g'oyat mutaassir bo'ldim.

Turkiya televideniesi orqali tez-tez chiqishlar qilayotgan, asli Afg'onistonda tug'ilgan o'zbek hofizi Sobir Qorgarning mung to'la qo'shiqlari yuragi tosh odamni ham yig'latmasdan qo'ymaydi. Men ko'rgan, suhbatlashgan kishilardan fabrika egasi, tijoratchi Shavkat Oynuralning (otasi qo'qonlik) ko'zlarida Vatan sog'inchi charaqlardi, otaxon yozuvchi Yassaviy (Turkiston shahridan) ning yuzidagi ajin izlari Turkiya va Turkiston yo'llari kabi chalkash edi. Ular faqat Vatanni qo'msashadi, Vatan nafasini olib kelgan kishilarni izzat-ikrom qilishadi, ulardan o'z ona tillarida bir og'iz shirin so'z kutishadi. Obid Oynural va Shavkat Oynuralning aytishlaricha, Istambulga kelgan qaysidir bir ansamblni, "Bahor"mi yoki "Lazgi"mi, ko'rgani borishibdi. Ko'rgulikni qarangki, o'zbek shevasini eshitishga mushtoq aka-ukalarga raqqosa qizlar rus tilida javob berishibdi." Bundan tashqari Shoirning xotiralari bilan tanishish jarayonida yana bir jihat e'tiborimni tortdi.

Shoir Turkiyaga kelgan ilk kunidayoq Turkiyada muhojirlikda yashayotgan Turkistonliklarning bir-birlariga befarq emasligini his qilgan holda shunday hikoya qilgan: "Menga qattiq ta'sir qilgan, xotiramda muhrlanib qolgan bir voqeaga ham to'xtalib o'tmasam bo'lmaydi. Turkiya tuprog'idagi ilk kunimiz musofirxonadagi xonam derazasidan tikilib, mahobatli jome'ga ko'zim tushdi. Qiziqib bordim. Tepako'cha jome'i ichkarisiga qadam qo'ydim-u, ko'zlarimga yosh qalqdi. Yo'q, bu ko'z yoshining sababi binoning hayratomuz san'atkorlik bilan qurilgani emas, balki qulog'imga chalingan duolar edi: — Yo, olloh! Turkistonlik orqadoshlarimizni ham o'z panohingda asragaysan. Ularni balolardan, ofatdan, muhtojlikdan, haqoratdan, zulmdan darig' tutgaysan [7, 1 b.].

XULOSA

Turkiston milliy-ozodlik harakati mintaqaning tarixiy taqdirida muhim o'rin tutgan bo'lib, uning

ishtirokchilari mustaqillik va milliy o'zlikni saqlash yo'lida murosasiz kurash olib borganlar. Ushbu harakat faqat siyosiy erkinlikni emas, balki madaniy va ijtimoiy yangilanishni ham o'z ichiga olgan. Harakatning natijalari mustamlakachilik tizimiga qarshi xalq harakati sifatida nafaqat Turkiston, balki butun Markaziy Osiyo xalqlari uchun muhim tajriba bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ushbu tarixiy voqealarni chuqur o'rganish va xolis baholash milliy taraqqiyot va o'zlikni anglash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Sovet davrida yuqorida keltirilgan sabablarga ko'ra dunyoning turli davlatlariga muhojir bo'lib ketishga majbur bo'lgan turkistonliklar turli hududlarga joylashib ijtimoiy hayotda faol bo'lishga harakat qilganlar. Ular orasida turli xil sohalarda faoliyat yuritib ijobiy natijalarga erishganlari ham ko'pchilikni tashkil etadi. Ular yangi muhitga moslashish, o'z madaniyatlarini saqlab qolish va yangi avlodlarga o'z an'alarini yetkazish uchun kurashdilar. Bu harakatlarni amalga oshirishda o'sha davrda yurtimiz va xorijda muhojirlar tomonidan tashkil etilgan va nashr etilgan gozeta va jurnallar va tashkilotlar va uyushmalarning o'rni beqiyosdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ganiyev, A.O., Nishonova, Z. R. Turkistondan Turkiyaga Muhojirlik Yo'llari (1917-1924 Yillar) // Islom Tafakkuri. – Toshkent, 2024. № 3.
2. Hayitov Sh.A. N.S. Sobirov, A.S. Legay. Xorijdagi o'zbeklar. Toshkent. "Fan" nashriyoti. 1992
3. Jalilov S. Buxoriylar Qissasi (muhojirat tarixidan lavhalar). – Toshkent: "Toshkent islom universiteti" nashriyot-matbaa birlashmasi, 2006.
4. Kosoniy S.M. Bir umrdir darbadar mulki jahon kezmoqdaman: xotiralarim kitobidan parchalar. – Toshkent: Hilol-Nashr, 2021. – B. 62-73.
5. Mamarajabov B.N. Saudiya Arabistondagi o'zbek (turkistonlik)larga doir tarixiy jarayonlar // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – T. 1. – №. 11.
6. Shamsutdinov R. Boburni izlab. – Andijon, 1993.
7. Turkiya va Turkiston yo'llarida (Shoir To'ra Mirzo bilan suhbat) (1989) <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/suhbatlar/to-ra-mirzo-turkiya-va-turkiston-yo-llarida>.
8. Tojiddinov A. Oltinxon To'ra hazratlarining ilmiy me'rosi. <https://mirarabmadrassa.uz/oz/news/130>
9. Turdiyev Sh. Ular Germaniyada o'qigan edilar. – Toshkent, 2006.
10. <https://www.vestiturkey.com/turciya-vtoraya-rodina-uzbekov-231h.htm>